

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ

ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ

РЕФЕРАТ

Тошкент

TARIX FAKULTETI III BOSQICH TALABASI

AHMEDOVA SHOHISTANING

“TARIX O‘QITISH METODIKASI” FANIDAN

DARS ISHLANMASI.

DARS REJASI :

1	Tashkiliy ishlar	3-min.
2	O‘rganilgan mavzuni takrorlash	10-min.
3	Yangi dars mavzusida ishlash.	2-min.
4	O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash	15-min.
5	Yangi mavzuni mustahkamlash.	10-min.
6	Dars yakunlarini chiqarish.	3-min.
7	Uyga vazifa berish.	2-min.

DARS VAQTI 45-MINUTGA MO‘LJALLANGAN

MAVZU: VI – XI asrlarda Yevropa madaniyati

“VI – XI asrlarda Yevropa madaniyati” mavzusida dars ishlanmasi

Darsning maqsadi:

1)Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarda VI – XI asrlarda Yevropa madaniyati haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

2) Tarbiyaviy maqsad:O‘quvchilarda o‘tmish madaniyati haqida tushuncha shakllantirish orqali o‘rnak olish xissini uyg‘otish va o‘quvchilarning madaniyatini rivojlantirish.

3) Rivojlantiruvchi maqsad : O'quvchilarga Vizantiya madaniyati, tasviriyl san'at va memorchilik, cherkov va muorrif to'g'risida tushuncha berish

Darsning turi : "VI – XI asrlarda Yevropa madaniyati" dan o'quvchilarni boxabar qilish va o'sha davr kashfiyotlari bilan tanishtirish

Darsning metodi:

O'quvchi markazda bo'lgan (interfaol yoki interaktiv) uslublar. Bu uslublar qo'llanilganda o'qituvchi o'quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. O'quvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- o'quvchini yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari ortirilgan bilimni ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini o'quvchining ehtiyojiga muvofiq lashtirilishi.
- o'quvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi;
- o'qishni sog'lom muhitda saqlab qolinishi;
- o'qituvching yengillik yaratib beruvchi shaxsga aylanishi.

O'quvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Shu sababdan, o'quvchining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli darajada o'quvchilar ishtiroki va amaliyoti mavjud bo'ladi.

Bu uslublar asosan o'qituvchining turli faoliyat shakllari orqali amalga oshiriladi

Guruhlardagi muhokama usuli

Ushbu o'qitish uslubi o'qituvchining juda oz «so'zlashiga» imkoniyat yaratadi va vaqtning asosiy qismi o'quvchilarning o'zaro muhokamalariga bag'ishlanadi. qachonki o'quvchilar mavzu haqida qandaydir darajada bilimga ega bo'lsalar bu uslubdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xatto mavzu haqida tasavvurga ega bo'lmagan holda, yoki mashg'ulotlar avvalida o'rganilgan bilimni takrorlash uchun ham foydalanishlari mumkin.

Dars materillari va jihozari:

1. Jahon tarixi darsligi 7 – sinf.
2. Tarixiy xotira, yozuvsiz xotira.
3. Ko'rgazmali rasmlar
4. Vatman, marker, skoch

Tarqatma materiallar va atamalar:

Akademiya platon, Magnavr Oliy maktabi, Grek olovi, Mazoika, Freska, Ekona, Roman uslubi, trifium, kvadrium.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy ishlar

- salomlashish
- davomatni aniqladh
- sinf ozodaligiga e'tibor qaratish
- o'quvchilar etiborini darsga jalb qilish, o'quvchilar o'quv qurollarining to'liqligini tekshirish.

II O'rganilgan mavzuni takrorlash

Darsning bu qismi quyidagi savollar yozilgan kartalar yordamida amalga oshiriladi.

- 1 kartochka: Kiev Rusi davlatining tashkil topishiga kimlar, qachon asos solgan.?
- 2 kartochka: Knyazlarning asosiy vazifalari nimadan iborat edi?
- 3 kartochka : Svyatoslarning Hazarlarga qarshi urushi va uning natijasi.?
- 4 kartochka : Xristianlik dini qay tariqa kirib keldi?
- 5 kaartochka : Ruslarni xristian diniga kiritish qachon, qaysi knyaz davrida amalga oshirildi?

6 kartochka : Kiev Rusining gullab yashnagan davri va madanyatining rivojlanishini nimalarda ko'ramiz ?

7 kartochka : Qonunlar to'plamida (Rus haqiqati) nimalar o'z ifodasini topgan?

8 kartochka : Ruslar va qipchoqlar o'rtasidagi munosabatlar qanday bo'lgan?

III Yangi dars mavzusida ishlash:

-doskaga sana va mavzuni yozish;

-O'quvchilar diqqatini jamlash;

-Ko'rgazma qurollar tayyorlanadi ;

O'quvchilar to'rt guruha bo'linadi va topshiriqlar beriladi. Har bir guruh o'z topshirig'ini darslikdan foydalangan holda bajaradi.

1- Guruhga topshiq :'' Franklar imperiyasida madaniyat'' haqida qisqacha matn tuzish.

2-guruhga topshiriq: ''Vizantiya madaniyati yutuqlari'' haqida malumotlar yozish.

3-guruhga topshiriq: ''Cherkov va muorifning rivojlanishi'' haqida qisqacha matn tuzish.

4-guruh iqtidorli o'quvchilardan tuziladi:

''O'rta Osiyo va Yevropa madaniyati VI-XI asrlarda'' – o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar to'g'risida ma'lumot yozish.

Guruh sardorlari doskaga vatmanlarni osib javoblarni izohlab berishadi. O'qituvchi tomonidan to'ldiriladi va aniqliklar kiritiladi.

IV O'rganilgan mavzuni mustahkamlash:

Atamalar bilan ishlash.

1-guruhga : Afina demokratiyasi, yetti erkin san'at, ritorika.

2-guruh: Magnavr oliy maktabi, roman uslubi, astralogiya.

3-guruh: “Grek olovi, grammatika, cherkov”

4-guruh: Tasvirning Vizantiyacha uslubi, dialektika, muorif.

Guruhlar atamalarni yozib doskada izohlab berishadi. Guruhlar ishi yakunlanadi.

V Dars yakunlarini chiqarish:

1. O’qtuvchi o’quvchilarni bajargan ishlari bo’yicha qo’yilgan baholarni va g’olib guruhni e’lon qiladi.

2. O’qtuvchi yuzaga kelgan savollarga javob qaytaradi.

VI Uyga vazifalar:

1. O’rganilgan mavzu savollariga javob tayyorlash

2. Mavzu mazmunini so’zlab bera olish

3. Guruhlarga mavzuga oid 8-10 test tuzdirish

4. Keyingi darsda o’rganiladigan mavzu bilan tanishib kelish.

Dars tugaganligi e’lon qilinadi va xayrlashiladi.

Komil insonni tarbiyalashda tarixning roli

«Ma’naviyatini tiklashi, tug’ilib o’sgan yurtida o’zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko’tarib yurishi uchun insonga, albatta tarixiy xotira kerak. Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson. Kim bo’lishidan qat’iy nazar, jamiyatning har bir a’zosi o’z o’tmishini yaxshi bilsa, bunday insonlarni yo’ldan urish, har xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o’rgatadi, irodasini mustahkamlaydi». Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov qalamiga mansub ushbu so’zlar komil insonni tarbiyalashda O’zbekiston tarixini xolisona va haqqoniy o’rganish naqadar muhim ekanligining dalilidir.

Har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda O’zbekiston tarixining o’rni kattadir. Komil inson tushunchasiga Yurtboshimiz yana shunday ta’rif beradilar:

«Kamil inson deganda biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi, u har bir narsani aql-mantiq tarozisiga solib ko'radi, o'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida ko'rgan kishi etuk odam bo'ladi».

Bugungi kunda xalqning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish borasidagi ishlar davlatning oldida turgan muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ma'naviyat, ma'naviy barkamollik shundaygina kishi ruhiga kirib qolmaydi. Unga har kuni va har soatda tinmay sabr-bardosh bilan mehnat qilish orqali etishish mumkin. Bu xayrli ishda O'zbekiston tarixini o'rganishning o'ni beqiyosdir.

O'tmish shunday boy tarixiy tajriba manbaidirki, odamlar unda o'rganadilar, tajribaga ega bo'ladilar va undan ilhom oladilar. Hozirgi kunda tarixni bilish kundalik nazariy va amaliy vazifalar echimini topishda zaruriy vosita hisoblanadi.

Darsning bayoni:

Akademiya platon, Magnavr Oliy maktabi, Grek olovi, Mazoika, Freska, Ekona, Roman uslubi, trifium, kvadrium.

V-XI asrlarda G'arbiy Yevropa madaniyati - G'arbiy yevropada madaniyat Vizantiya madaniyatidan orqada edi. Buning asosiy sababi bu mintaqada markazlashgan hokimiyatning bo'lmaganligidir . Bundan tashqari, parchalanganh G'arbiy Yevropa xorijiy mamlakatlar bilan aolqada bo'la olmagan .Natijada Yevropaliklar o'zlarining biqiq hayotlari doirasida cheklanib qolganlar.Buxol , o'z navbatida , G'arbiy Yevropada asosan diniy aqidalarning hukmronligiga olib kelgan. Savodli kishilar juda oz bo'lgan. Ularning katta qismini ruhoniylar tashkil etgan. Cherkov qadimgi dunyo madaniyatining faqat o'ziga ma'qul bo'lgan jixatlarinigina qabul qilgan.

Vizantiya madaniyati – Yevropaning boshqa mamlakatlari madaniyatidan ustun bo'lgan. Buning sababi Vizantiyada kuchli markaziy hikomiyat mavjud

bo'lganligidir. Markaziy hokimiyatning mavjudligi imperiya ichki hayotida osoyishyalikni ta'minlagan. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishning yuksak taraqqiy etishiga omil bo'lgan. Shaharlarda diniy va hususiy maktablar , davlat maktablari faoliyat ko'rsatgan. Yevropada birinchi oliy o'quv yurti ham Vizantiyada ochilgan. Poytaxt Konstantinopol shahri o'zining oliy tibbiy bilim yurti bilan mashhur bo'lgan. Vizantiyada ayniqsa , matematika, kimyo, tarix va geografiya fanlari rivojlangan.Chunonchi kimyo fani yutuqlari asosida grek olovi ixtiro qilingan.

Vizantiyada tarixga oid qator asarlar yaratilgan. Ular orasida Prokofiy Kesarskiyning “ Urushlar tarixi ” ,“ Sirli tarix ”, Agafiyning “ Yustinianning podsholik qilishi ” kabi asarlar katta ahamiyatga ega. Vizantiya madaniyatining Yevropa madaniyatida tutgan o'rnini uning kutubxonalarida qadimgi yunon va rim allomalarining ko'plab asarlari saqlanganligi bilan ham belgilanadi. Aynan shu kitoblardan keying avlodlar ham bahramand bo'lganlar. Vizantiya madaniyati sharqiy va janubiy Yevropa xalqlari madaniyatiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.Chunonchi Bolgariya , Serbiya , va Kiev Rusi davlatlari xristian dinini Vizantiyadan qabul qilgan. Yunon missioneri Krill 855-yilda “ KRILL ” deb atalgan alifbeni yaratgan . Unga yunon alifbesini asos qilib olgan.

Sxolastika- so'zining lugatviy ma'nosi “ maktab ”, “ o'qiydigan joy ”kabilarni anglatadi. Sxolastlar deb Buyuk Karl saroyidagi, saroy maktablaridagiO'quvchilarni hamda diniy o'qitishda falsafadan foydalanadigan o'rta asr iloxiyotchilarini ataganlar .Sxolastikada e'tiqod va tafakkurning mutanosibligi masalasida baxs munozara olib borilar edi.Sxolastikaning yirik namoyondalari Foma Akvinskiy edi. (1225-1274)U mashhur “ Iloxiyot to'plami “ asrining muallifi U asrida aql xudoning borligini asoslashga qodir deb yozgan.